

BUXORO AMIRLIGIDA SUD HOKIMIYATINI VUJUDGA KELISHI

Xakimov Jahongir Nematjon o'g'li
Toshkent kimyo-texnologiya institute
Shahrisabz filiali katta o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu tezisda Buxoro amirligida sud hokimiyatning vujudga kelishi va rivojlanishi haqida faoliyat ko'rsatgan qozi ishlarini yo'lga qo'yilishi hamda qanday hollarda sudga tortilishi haqida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zalar: Qozi kalon, devon, xon, hokimiyat, qozi askar, harbiy sud.

Davlat hokimiyatining ajralmas qismi sanalgan sud hokimiyatini shakllantirish borasidagi tarixiy tajribamizni har tomonlama chuqur tahlil etish, shuningdek, bugungi kunda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotimizning barcha jihatlarini o'zida aks ettiradigan hamda jahon andozasidagi mustaqil sud hokimiyatini qaror toptirish har birimizning fuqarolik burchimizdir... Prezident Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida "...yurtimizda so'nggi yillarda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq sohasini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarishlar inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash va odil sudlovga erishishga qaratilgan deya siyosatda odil sudning o'rni benihoya kattaligini ko'rsatib bergan.

Buxoro amirligida sud tizimi O'rta Osiyodagi boshqa xonliklar singari bir xil ko'rinishga ega bo'lgan. Xususan, amirlikda sud ishlari shariat asosida olib borilgan, qozi va a'amlar tarkibiga kiritilgan. Ular amir tomonidan tayinlangan, qozilik faoliyati qozi kalon tomonidan boshqarilgan

Buxoro amirligining davlatchilik tarixini o'rganishda uning sud tizimi, jarayoni hamda jinoyat va jazoga oid masalalarni dastlabki manbalarga tayangan holda tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezident I.A.Karimovning yuqorida keltirilgan fikrlaridan kelib chiqib, ta'kidlash joizki, milliy davlatchilik tariximizning muhim masalalaridan biri bo'lgan sud va sudlov masalalari tarixini xolisona o'rganish va undan tegishli xulosalar chiqarish



hamda davlatning taraqqiyoti va rivojlanishida uning ahamiyatini ko'rsatib berish bugungi kunda tadqiq etilishi dolzarb bo'lgan mavzulardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarda amirlikning sud tizimi, sud jarayoni, qozilik faoliyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va boshqa bir qator masalalar umumlashgan holda yaxlit tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Binobarin, ushbu izlanishlarda sud va sudlov tarixiga oid bo'lgan manbalar yetarli tarzda tahlil etilgan deb bo'lmaydi. Ularda Buxoro amirligi sud va sudlov masalasining ayrim jihatlari o'rganilgan, xolos. Xususan, D.I.Logofet Buxoro amirligi sudi tarixini bir yoqlama va asossiz ravishda bayon etib, unga "huquqsizlar va yovvoyi o'zboshimchalik mamlakati"- deb ta'rif beradi hamda odil sudlovga oid qoidalar amalda qo'llanilmagan deb ma'lumot beradi.¹ T.G.Tuxtametov esa, sud tizimi xususida umumiy ma'lumot berib, amirlikda hech qanday hay'at ko'rinishidagi sudlov yoki kassatsiya instansiyasi sudi tartibidagi sud hamda hukmdan norozi bo'lib murojaat etish huquqi mavjud bo'lmagan deb e'tirof etadi.² Sayohatchi olim Ye.K.Meyendorf ham sud tizimi haqida qisqacha ma'lumot berib, qozi-kalon oliy sudya lavozimida bo'lsada, biroq mahalliy qozilar faoliyatini umumiy nazorat qilish yoki boshqarish vakolatiga ega bo'lmagan deb ta'kidlaydi.³

Buxoro amirligi davlatchiligi tarixi bilan shug'ullangan olim B.I.Iskandarov amirlik sudi tarixiga oid asosli va xolis ma'lumotlarni dastlabki manbalarga tayangan holda keltirib o'tadi. Xususan, u amirlikda sud ishlari shariat asosida olib borilganligini, qozilar va a'lamlar ruhoniylar tarkibiga kirganligini, ular amir tomonidan tayinlanganligi va qozilik faoliyati qozi kalon tomonidan boshqarilganligini hamda sud hokimiyatining mahalliy hokimiyatdan alohida ish olib borganligini e'tirof etadi.⁴

O'rta Osiyodagi boshqa xonliklar singari Buxoro amirligida ham sud tizimi bir xil ko'rinishga ega edi. Amirlikda sud tizimi davlatning ma'muriy apparati qo'lida bo'lsada, fiqh ilmi ulamolarining nazorati ostida edi. Binobarin, davlatda diniy amaldorlarning sud faoliyatini nazorat qilishi, o'z navbatida, ularning davlat boshqaruvidagi ahamiyatini muayyan darajada oshirib kelgan. Mavjud manbalar va adabiyotlarni o'rganish asosida Buxoro amirligi sud tizimini quyidagicha tahlil

¹ Логофет Д.И. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – СПб.: Березовский, 1909. – С.58

² Tuxtametov T.G. Rossiya i Buxarskiy emirat v nachale XX veka. – Dushanbe: Irfon, 1977. – S.17

³ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975. – С.136.

⁴ Искандаров Б.И. Из истории Бухарского эмирата. – М.: Изд.Вос.Лит, 1958. – С.27.



qilish mumkin: Qozilik mahkamasi – qozi ul-quzzot tomonidan boshqarilgan bo‘lib, unda mirzalar hamda mulozimlar faoliyat yuritganlar. O‘z navbatida, qozi ul-quzzot Buxoro shahrining bosh qozisi hisoblangan. Mirzalar – qozilik mahkamasining ish yurituvchilari hisoblansa, mulozimlar esa surishtiruv ishlarini olib borish bilan mashg‘ul bo‘lganlar.

Devoni ulamo – qozilik faoliyatiga ko‘maklashuvchi va maslahat beruvchi idora. Ushbu idorada muftiylar va a‘lamlar faoliyat yuritganlar. Ma‘lumotlarga qaraganda, mazkur devonda 12 muftiydan iborat bo‘lgan kengash amal qilgan.⁵

Mahalliy qozilik idorasi – barcha bekliklarda ushbu idoralar bevosita amir tomonidan tayinlanadigan qozilar tomonidan boshqarilgan. Undan tashqari ushbu idorada muftiylar va mulozimlar ham xizmat qilganlar. Qozilik mahkamasidan farqli o‘laroq, mahalliy qozilik idorasida mulozimlar qozilar hukm va qarorlari ijrosini ta‘minlash bilan shug‘ullanganlar. Shu bilan birga, sud jarayonini qayd etib boorish maqsadida daborlar (kotib) mansabi ham mavjud bo‘lgan. Qozilar mahalliy bekdan (hokim) mustaqil faoliyat yuritib, muayyan darajada beklikning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirganlar

Qozi askar – bevosita qozilik mahkamasiga buysunuvchi, harbiy xizmatchilar tomonidan xizmatda, jang davomida yoki boshqa yurishlarda sodir etilgan harbiy jinoyatlarni ko‘rib hal etuvchi qozi.

Buxoro amirligi sud tizimida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan fiqh ilmi ulamolari qonun va shariat huquqiy normalari himoyachisi, qonunlar sharhlovchisi sifatida obro‘-e‘tibor topganlar. Sud tizimi mehnat taqsimotida qattiq tartib o‘rnatilgan bo‘lib, unga ko‘ra qozilik idorasida faoliyat yurituvchi har bir mansabdor shaxs faqat o‘ziga tegishli vakolatni amalga oshirgan. Davlatda sud sohasi muayyan bir tizimga amal qilishiga qaramasdan, O‘rta asr G‘arb mamlakatlari kabi sudlar diniy va dunyoviy sudlarga bo‘linmagan edi. Ta‘kidlash joizki, Buxoro amirligida sud tizimi Xiva va Qo‘qon xonliklariga qaraganda muayyan darajada takomillashgan edi. Xususan, Xiva xonligida sud tizimi oddiy ko‘rinishga ega bo‘lib, ko‘pgina ishlar to‘g‘ridanto‘g‘ri xon qabuliga kelib tushar, ma‘lum bir ishni ko‘rib hal qilish xon va uning yaqinlari ixtiyoriga bog‘liq edi. Buxoro amirligida qozilikka quyidagi asosiy talablar qo‘yilgan: musulmon erkak kishi bo‘lmoqligi, erkin, voyaga yetgan, oilali, jismoniy kamchiligi mavjud bo‘lmagan, fiqh ilmini mukammal bilishi, hayotiy

⁵ Tuxtametov T.G. Россия и Бухарский эмират в начале XX века. – Душанбе: Ирфон, 1977. – С.17;



tajribaga ega bo'lgan, arab tilini biladigan hamda badnom fuqaro bo'lmasligi kabilar. Sadridin Ayniyning fikriga ko'ra, bunday talablarga faqatgina Buxoro madrasalarida 19 yil davomida bilim olgan bitiruvchilar javob bera olishlari mumkin edi.⁶ Zaruriyat tug'ilgan hollarda qozi qozilik talablariga javob beradigan fuqarolardan bir yoki bir necha o'rinbosarlarni tayinlar edi.⁷ Ayollar qozilik lavozimiga tayinlanmas edi. Qozilikka faqatgina xanafiylik maktabi ta'limotini bilishlik talab qilinmasdan, balki ilmiy daraja bo'lishligi, ya'ni fiqh ilmi va shariat norma hamda qonunlarini izohlash huquqi berilganligi ham talab qilingan.

Shuni ta'kidlashimiz kerakki, Buxoro amirligida guvoh tariqasida sud jarayonida: voyaga yetmaganlar, qullar, g'ayridinlar, tuhmatchilar, ig'vogarlar, yolg'onchilar, qasamxo'rlar, jazoga tortilganlar, yaqin qarindoshlar va boshqalar ishtirok eta olmaganlar.⁸ Ayrim fuqarolik va jinoyat ishlarida ikki erkak kishi bo'lgan hamda hajmi katta bo'lgan jinoyat ishlarida to'rtta erkak kishining guvoh tariqasida ishtirok etishi talab etilgan. Bir erkak guvoh kishining o'rniga ikki ayol guvoh bo'lishi talab qilingan. Qoidaga asosan guvohlar da'vogar yoki shikoyatchi tomonidan tavsiya etilishi lozim bo'lgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, javobgarda guvohning huquqiy layoqatsizligi motivini inobatga olib, uni rad etish huquqi mavjud bo'lgan. Agar sud jarayonida guvohlar o'rtasida, ayniqsa ularning ko'rsatmalarning mazmunida turli xil qarashlar yuzaga kelsa, ularning barchasi yolg'on guvohlik berganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan. Agar sud jarayonida ishtirokchilar o'zga shaxs huquqini yoxud ma'lum holatlarni tan olmasalar uni isbot etish maqsadida qasam ichish usuli qo'llanilgan. Yozma dalillar sud jarayonida guvohlarning ko'rsatmalari bilan o'z tasdig'ini topmasa, ish bo'yicha qaror qabul qilish uchun yetarli asos mavjud emas, deb e'tirof etilgan. Odatda qozi muayyan bir ish yuzasidan ishni rad etmasdan qarorni mazkur majlisning o'zida chiqargan. Sud ishlarining tezlikda amalga oshirilishi sudning eng ma'qul sifatleri deb hisoblangan. Qozi hukmidan norozi bo'lganlar qozikalon yoki amirga ariza berishga haqli edilar. "Qozi chiqargan hukmni qozikalon, uning hukmini esa faqat amir bekor qilishi mumkin bo'lgan".⁹ Amirlikda qoziga sud ishlarini muhokama etishdan tashqari quyidagi majburiyatlar ham yuklatilgan: Chunonchi, 1) vasiylik va homiylikni

⁶ Sadridin Ayni. Buxara. (Vospominaniya). – Dushanbe: Irfon, 1980. –S.138-141.

⁷ Юшков С.В. История государства и права СССР. Ч. I. – М.: Наука, 1940. – С.138.

⁸ Лунёв Ю.Ф. Государство и право узбекских ханств с XVI по XIX века. – М.: Аст, 2004. – С.105.

⁹ O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti / Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O'., Norqulov. – Toshkent: Akademiya, 2000. – B.202.



tayinlash; 2) meros qilib qoldirilgan hamda merosni taqsimlash kabi masalalarni nazorat qilish; 3) qabul qilingan qarorlar ijrosini yuritish; 4) taraflar tomonidan imzolangan shartnoma va bitimlarni guvohlantirish va boshqa turli notarial harakatlarni amalga oshirish kirgan.¹⁰

Buxoro amirligi sud tizimini tahlil qilish orqali uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tish mumkin: Birinchidan, amirlikda sud hokimiyati faoliyatiga mahalliy yoki boshqa idoralar aralasha olmagan; ikkinchidan, ishlar kollegiallik asosida ochiq ravishda ko'rib chiqilgan; uchinchidan, sudlovlilik va sudlovga taalluqlilik masalasi aniq qilib belgilangan; to'rtinchidan, amirlikda muayyan bir ishni ko'rib hal etishda fiqh ilmi ulamolari va muftiylar qaroriga tayanilgan; beshinchidan, hukm yoki qarordan norozi bo'lgan taraf kassatsiya tartibida qozilik mahkamasiga yoxud amirga murojaat etish huquqiga ega bo'lgan; oltinchidan, harbiylar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar alohida qozilar, ya'ni qozi askarlar tomonidan ko'rib chiqilgan.

Men xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, ayni paytda Buxoro amirligida sud tizmi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ularning ishlariga xon nazorat qilib turgan. Ayniqsa Amir Shohmurod davrida umuman huquq tizmi keng rivojlangan hamda adolat qaror topgan davr deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti / Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O'., Norqulov. – Toshkent: Akademiya, 2000.
2. Tuxtametov T.G. Россия и Бухарский эмират в начале XX века. – Душанбе: Ирфон, 1977.
3. Sadriddin Ayni. Buxara. (Vospominaniya). – Dushanbe: Irfon, 1980.
4. Лунёв Ю.Ф. Государство и право узбекских ханств с XVI по XIX века. – М.: Аст, 2004.
5. Юшков С.В. История государства и права СССР. Ч. I. – М.: Наука, 1940.
6. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975.
7. Искандаров Б.И. Из истории Бухарского эмирата. – М.: Изд. Вос. Лит., 1958.

¹⁰ Лунёв Ю.Ф. Государство и право узбекских ханств с XVI по XIX века. – М.: Аст, 2004. – С.106.

